



TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

M.P.ESHOV

A.Y.XUDAYKULOV

G.K.ABDURAXMANOVA

O'rnatilgan tartibda ijrosini ta'minlash uchun

Muddat: 7 Iyul 2023

M.P.ESHOV

4.4-банд. Буйруқнинг 4-банди

Muddat: 31 Iyul 2023

№V/866
4 Iyul 2023

K.A.SHARIPOV
Ректор





O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I

2023 - yil « 3 » iyul 289 -son

Toshkent shahri

2023/2024 o‘quv yili uchun xorijiy va nodavlat oliy ta‘lim muassasalaridan respublika davlat oliy ta‘lim muassasalariga talabalar o‘qishini ko‘chirish uchun o‘tkaziladigan maxsus sinovlar bo‘yicha o‘tish ballarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida” 2022-yil 15-iyundagi PQ–279-son qarorida:

xorijiy va nodavlat oliy ta‘lim muassasalaridan respublika davlat oliy ta‘lim muassasalariga talabalar o‘qishini ko‘chirishda talabadan alohida iqtidor talab etiladigan ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar, boshqa ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha test sinovlari (keyingi o‘rinlarda – maxsus sinovlar) o‘tkazilishi;

kasbiy (ijodiy) imtihonlar tegishli oliy ta‘lim muassasasi tomonidan, test sinovlari Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan o‘tkazilishi;

maxsus sinovlar bo‘yicha o‘tish ballari har yili 15-iyulga qadar Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda tizimida oliy ta‘lim muassasalari bo‘lgan vazirlik va idoralar tomonidan belgilanishi hamda Bilim va malakalarni baholash agentligining rasmiy veb-saytida e‘lon qilinishi qayd etilgan.

Ushbu topshiriqlar ijrosini ta‘minlash maqsadida:

BUYURAMAN:

1. 2023/2024 o‘quv yili uchun xorijiy va nodavlat oliy ta‘lim muassasalaridan talabalar o‘qishini respublika davlat oliy ta‘lim muassasalariga ko‘chirish bo‘yicha o‘tkaziladigan maxsus sinovlar bo‘yicha o‘tish ballari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar:

maxsus sinovlar bo‘yicha o‘tish ballari ta‘lim sohalari kesimida tizimida oliy ta‘lim muassasalari bo‘lgan vazirlik va idoralarning takliflari asosida shakllantirilganligi;

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan nodavlat va xorijiy oliy ta‘lim muassasalari, ularning filiallaridan respublika davlat oliy ta‘lim

muassasalariga talabalar o'qishini ko'chirish ham muayyan ta'lim yo'nalishiga kirish fanlaridan o'tkaziladigan maxsus sinovlar natijalariga muvofiq amalga oshirilishi;

xorijiy va nodavlat oliy ta'lim muassasalaridan talabalar o'qishini ko'chirish mos yoki turdosh bakalavriat ta'lim yo'nalishiga ko'chirish bo'yicha hujjat topshirib, ro'yxatdan o'tgan talabalar hisobidan amalga oshirilishi;

xorijiy davlatlarning oliy ta'lim muassasalaridan respublika davlat oliy ta'lim muassasalarining mos bo'lmagan yoki turdosh bo'lmagan bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga o'qishni ko'chirishga ruxsat etilmasligi ma'lumot va faoliyatda foydalanish uchun qabul qilinsin.

3. Bilim va malakalarni baholash agentligi (M.Karimov), Axborot xizmatlari bo'limi (N.Abdugunduzova) 2023/2024 o'quv yili uchun xorijiy va nodavlat oliy ta'lim muassasalaridan respublika davlat oliy ta'lim muassasalariga talabalar o'qishini ko'chirish uchun o'tkaziladigan maxsus sinovlar bo'yicha belgilangan o'tish ballari to'g'risidagi ma'lumotlarni Bilim va malakalarni baholash agentligining rasmiy veb-saytida hamda ommaviy-axborot vositalarida e'lon qilinishini ta'minlasin.

4. Oliy ta'lim muassasalari rektorlari (direktorlari) 2023/2024 o'quv yilida xorijiy va nodavlat oliy ta'lim muassasalaridan talabalar o'qishini respublika davlat oliy ta'lim muassasalariga ko'chirish bo'yicha ishchi guruh faoliyatini tashkil etsin va fuqarolarni qiziqtirgan savollarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari hamda mazkur buyruqqa asosan tushuntirishlar berib borilishini ta'minlasin.

5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari K.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



I.Abduraxmonov

**NUSXA
ASLIGA TO'G'RI**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan
va innovatsiyalar vazirining 2023-yil
" 3 " iyuldagi " 289 " - son
buyrug'iga ilova

**2023/2024 o'quv yilida xorijiy va nodavlat oliy ta'lim muassasalaridan respublika
davlat oliy ta'lim muassasalariga talabalar o'qishini ko'chirish uchun
o'tkaziladigan maxsus sinovlar bo'yicha o'tish ballari**

Shifr	Bilim va ta'lim sohalari nomi	2023/2024 o'quv yili uchun maxsus sinovlar bo'yicha tasdiqlangan o'tish ballari
100 000	TA'LIM	
110 000	Ta'lim	94
200 000	SAN'AT VA GUMANITAR FANLAR	
210 000	San'at	80
220 000	Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)	94
230 000	Tillar	94
300 000	IJTIMOY FANLAR, JURNALISTIKA VA AXBOROT	
310 000	Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar	105
320 000	Jurnalistika va axborot	105
400 000	BIZNES, BOSHQARUV VA HUQUQ	
410 000	Biznes va boshqaruv	105
420 000	Huquq	140
500 000	TABIY FANLAR, MATEMATIKA VA STATISTIKA	
510 000	Biologik va turdosh fanlar	80
520 000	Atrof muhit	94
530 000	Fizika va tabiiy fanlar	80
540 000	Matematika va statistika	94
600 000	AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI	
610 000	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	94
700 000	MUHANDISLIK, ISHLOV BERISH VA QURILISH SOHALARI	
710 000	Muhandislik ishi	75
720 000	Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari	75
730 000	Arxitektura va qurilish	75
800 000	QISHLOQ, O'RMON, BALIQ XO'JALIGI VA VETERINARIYA	
810 000	Qishloq xo'jaligi	70
820 000	O'rmon xo'jaligi	70
830 000	Baliq xo'jaligi	70
840 000	Veterinariya	60
900 000	SOG'LIQNI SAQLASH VA IJTIMOY TA'MINOT	
910 000	Sog'liqni saqlash	129
920 000	Ijtimoiy ta'minot	94
1 000 000	XIZMATLAR	
1 010 000	Xizmat ko'rsatish sohasi	80
1 020 000	Gigiyena va ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi	70
1 040 000	Transport xizmatlari	104